

**XARAJATLAR HISOBIDA QO‘LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI
VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH**

Qo‘ldoshev Akbar Ixtiyorovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti 1-bosqich magistranti*

Irisboyev Rahmatillo Shavkat o‘g‘li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti 3-bosqich talabasi*

Eshmuradov Ulug‘bek Tashmurotovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o‘qituvchi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada «kalkulyatsiya», «tannarxni kalkulyatsiya qilish», «tannarxni hisoblash» kategoriyalari mohiyati, o‘zaro bog‘liqligi, farqli xususiyatlari hamda ularni hisobda aks ettirish tartibi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya qilish, tannarxni kalkulyatsiya qilish, tannarxni hisoblash.*

Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda bevosita buxgalteriya hisobiga ko‘proq tegishli bo‘lgan «kalkulyatsiya», «tannarxni kalkulyatsiya qilish», «tannarxni hisoblash» kategoriyalari qo‘llaniladi.

Ushbu atamalar mohiyatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning mohiyati buxgalteriya hisobiga tegishli adabiyotlarda uzoq vaqtlardan buyon yoritilib kelinishiga qaramasdan, turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Jumladan, bevosita buxgalteriya hisobi bo‘yicha tadqiqot olib borishgan iqtisodchi-olimlardan I.I. Poklad, I.A.Lamikin, P.A. Kostyuk, P.P.Novichenko, V.F.Paliy, A.I.Grinman, A.A.Bashirovlar «kalkulyatsiya», «tannarxni kalkulyatsiya qilish», «tannarxni hisoblash» kategoriyalarining mohiyatini turlicha yoritishgan bo‘lishsada, mohiyati bir-biriga o‘xshash bo‘lgan.

«Kalkulyatsiya» tushunchasi tannarxni hisoblash jarayoni sifatida ayrim mualliflar tomonidan qo‘llanilgan. Masalan I.I. Poklad shunday yozgan: «Xarajatlar moddalari bo‘yicha mahsulot (buyum, tur, guruh) birligi tannarxini hisoblab chiqish kalkulyatsiya deb ataladi».

Ayrim iqtisodchilar ko‘p hollarda kalkulyatsiyani faqat kalkulyatsiya qilishning natijasi sifatida tushunadilar. Aslida esa, tannarxni hisoblab chiqishning to‘liq jarayoni va kalkulyatsiya hisoblab chiqishning natijasi ya‘ni, aniqlangan qiymatni ko‘rsatuvchi hisob deb tushunish kerak. Hisob amaliyotida «kalkulyatsiyalash» va «tannarxni hisoblash» tushunchalari o‘zaro bog‘liqdir, chunki mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish, mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblashdir. I.A.Lamikin kalkulyatsiya tushunchasini quyidagicha ta‘riflaydi: «Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini hisob-kitob qilish tannarx kalkulyatsiyasi deb ataladi».

Iqtisodchilarning bir qismi kalkulyatsiyani, bir tomondan, mahsulotni tannarxini hisoblash usuli, ikkinchi tomondan hisob jarayonining yakunlanishini deb hisoblaydilar. Shu jihatdan P.A. Kostyuk kalkulyatsiyani «Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot chiqishining aniq usullar va metodlari bilan xarajatlar guruhlashtirilgan holda mahsulotning tannarxi hisoblanadigan yakuniy bosqich» - deb baholaydi.

Uning bu fikriga, agar kalkulyatsiya qilish deyilganda qo'shilmaslik mumkin emas. Ma'lumki, kalkulyatsiya baholash bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi metodining unsurlaridan biri hisoblanadi. Bu mazmunda kalkulyatsiya bir jihatda xo'jalik vositalarini baholash usuli sifatida, ikkinchi jihatda shunday bahoning negizi va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu kategoriyalarning mohiyati hozirgi vaqtda respublikamizda bevosita buxgalteriya hisobi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan iqtisodchi – olimlardan N.S.Sanayev, N.Yu.Jo'rayev, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, A.A.Karimov, R.D.Dusmuratov, M.K.Pardayev, A.X.Pardayev, R.O.Xolbekov, A.A.Abdug'aniyev³⁶larning nashr etilgan ilmiy ishlarida atroflicha yoritib o'tilgan.

Fikrimizcha kalkulyatsiya hisobi va kalkulyatsiya – bu bir xil tushuncha emas, ammo bir-biridan ularni ajratish ham mumkin emas. Hisob usullari va hisob ko'rsatkichlari qandaydir umumiy yig'indisi mavjud va u mahsulotni kalkulyatsiyalash umumiy tizimining unsuri bo'lib xizmat qiladi.

Tannarxni hisoblash - bu nafaqat kalkulyatsiya (umumiy kalkulyatsiya, mahsulot birligi tannarxi aniqlash), bu kalkulyatsiyani ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlovchi hisob usullari va hisob-kitoblarning yig'indisidir.

Bu usullar va hisob - kitoblarga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining sintetik va analitik hisobini tashkil etish, tannarxga kiritiladigan bilvosita harajatlarni yig'ish va taqsimlash, xarajatlarni hisobdan chiqarish bo'lib, shular asosida «xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari» deb nomlanuvchi atamalar kiradi.

Buxgalteriya hisobida kalkulyatsiya alohida kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi metodologiyasining ilk bosqichlarida xarajatlarning analitik hisobi, kalkulyatsiyalashning negizi edi va uning tashkil etilishi mahsulotning tannarxini hisoblab chiqish metodikasiga bo'ysunar edi.

Hozirgi kunda xarajatlarning analitik hisobi kalkulyatsiyalash doirasidagi ishlardan yuqori vazifalarni bajarmoqda, ya'ni xarajatlarni paydo bo'lishi joyi, hisob

³⁶ Санаев Н.С. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби асослари. – Т.: «Шарқ», 2005. – 110 б.; Жўраев Н.Ю. ва бошқ. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Дарслик. – Т.: 2010. – 310 б.; Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудит ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари тannarxини аниқлашни такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссер. авто. – Т.: 2002. – 34 б.; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. Монография. – Т.: «Молия», 2003. – 248 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссер. авто. – Т.: 2009. – 32 б.; Дусмуратов Р.Д., Мамадияров Д.У. Қишлоқ хўжалигида бошқарув ҳисоби: услибиёт ва амалиёт. Монография. – Т.: «Молия», 2008. – 148 б.; Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Иқтисодий таҳлил. 1-2 қисм. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2001. – 256 б.; Пардаев А.Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. – Т.: Ф.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – 251 б.; Холбеков Р.О. Донни сақлаш ва қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш ҳисобини ташкил қилишнинг тамойиллари ва услубияти: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дисс. авто. – Т.: 2006. – 44 б.; Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: 2003. – 275 б.

obyektlari, mas'uliyat markazlari, xarajat me'yorlari bo'yicha guruhlashtiradi, me'yorlardan o'zgarish va chetlanishi boshqa guruhlarni keltirib chiqaradi. Xarajatlar hisobi va kalkulyatsiyalash- mustaqil va lekin o'zaro bog'liq elementlardir. Faqat xarajatlar hisobida olingan batafsil axborotlarni, kalkulyatsiyalash natijasida olib bo'lmasligi, xarajatlar hisobi mukamalroqligini ko'rsatadi. Haqiqatda ham xarajatlar hisobini boshqaruv maqsadlari uchun xohlangan batafsillikkacha olib borish mumkin. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, kalkulyatsiya tizimidan kengroq, chunki turli analitik guruhlarni o'z ichiga oladi.

Kalkulyatsiya kalkulyatsiyalashning natijasi hisoblanadi. Uning tuzilmasiga ko'ra kalkulyatsiya hisob tartibi, hisob kitob qilish tizimi va mahsulot tannarxi haqidagi axborotlarni shakllantiriladi. Kalkulyatsiyada ishlab chiqarish xarajatlarini to'liq ochib berilmaganligi, unda ayrim xarajatlar ajratilganligi, batafsilligi va aniqligiga bog'liq.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda qaysi mahsulot tannarxini aniqlanishi, ya'ni kalkulyatsiya obyektini bilish muhim ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish vaqtida, qaysi mahsulot tannarxi aniqlansa, o'sha mahsulot kalkulyatsiya objekti hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida olingan mahsulotlar shartli ravishda uchga bo'linadi:

1. Asosiy mahsulot. Ishlab chiqarish qanday mahsulotni ishlab chiqarish uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha mahsulot asosiy mahsulot hisoblanadi.

2. Yondosh mahsulot. Ahamiyati jihatidan asosiy mahsulotga tenglashadigan va asosiy mahsulotni ishlab chiqarish davomida u bilan birga olinadigan mahsulotlar yondosh mahsulotlar deyiladi.

3. Qo'shimcha mahsulot. Ahamiyati jihatidan asosiy mahsulotga tenglasha olmaydi, lekin asosiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida u bilan birgalikda olinadigan mahsulotlar qo'shimcha mahsulotlar deyiladi. Asosiy va yondosh mahsulotlar kalkulyatsiya obyektleri hisoblanib, qo'shimcha mahsulotlar kalkulyatsiya objekti bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishning texnologiyasi va xarakteridan kelib chiqib kalkulyatsiya objekti sifatida:

tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlar yoki mahsulotlarning komplekslari;

buyumlar yoki yarim fabrikatlar, turli buyumlar, bir nomdagi buyumlar yoki yakka tartibda ishlab chiqiladigan turli buyumlar;

qurilish obyektlarida yakunlangan qurilish bosqichlari; ishlar va xizmatlar turlari bo'lishi mumkin.

Kalkulyatsiyalash metodlari – bu korxonalar (tashkilot), uning bo'linmalarida ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatning tannarxini hisoblash jarayonida foydalaniladigan usullarning ilmiy asoslangan yig'indisidir.

Tayyor mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish metodlari tasnifining asosi sifatida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, kalkulyatsiya obyektlar va mahsulot tannarxini nazorat qilish usullari tushuniladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, hozirgi kunda korxonalarda mahsulotlar tannarxini

kalkulyatsiya qilish metodikasi bo'yicha asosiy va yondosh mahsulotlar tannarxi kalkulyatsiya qilinib, qo'shimcha mahsulotlar tannarxi kalkulyatsiya qilinmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS IN AGROCLUSTERS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(9), 310-316.
2. Аликулов, А. И. (2010). Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография. "Фан ва технология", -Тошкент, 196.
3. Аликулов, А., Ибрагимов, М., & Файзуллаев, З. (2019). Фермер хўжаликларида узумчилик плантацияларини барпо этиш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш. *Экономика и инновационные технологии*, (3), 37-44.
4. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.
5. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ И ИЗМЕРЕНИЯ БЕДНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *PELAGOG*, 6(11), 237-246.
6. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 193-203.
7. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 712-721.
8. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLAR SOTISH JARAYONLARIDA SEGMENTAR HISOBOTLARNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(7), 790-795.
9. Tashmuratovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 649-657.
10. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.
11. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In *CONSTRUCȚII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE* (pp. 113-118). Editura Vasiliana'98.
12. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
13. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). EVALUATION AND ACCOUNTING OF MATERIAL WORKING CASH IN AGROCLUSTERS AS AN OBJECT OF ACCOUNTING. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 1), 102-109.

14. Khasanov, B. A., Eshboev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(14), 42-48.
15. Иштурдиев, Х. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В АГРОКЛАСТЕРЕ. *Научный Фокус*, 1(7), 700-708.
16. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 30-32.
17. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. *Научный Фокус*, 1(7), 709-714.
18. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). MODERN FOUNDATIONS OF TEACHING ECONOMICS IN UNIVERSITY. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 4), 173-176.
19. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Научный Фокус*, 1(7), 681-686.
20. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*, 1(3), 1-4.
21. Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). НЕРАВНОЦЕННОСТЬ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. *Научный Фокус*, 1(7), 796-801.
22. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
23. Davletov, I., & Fayziyev, O. (2023). MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQ MOLIYAVIY HISOBOTLARNI KONSOLIDATSIYALASH TAMOYILLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5), 148-151.
24. Raximovich, F. O., & Hojiakbar o'g, Y. L. A. (2022). ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY TAMOYILLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 302-305.
25. Raximovich, F. O. (2022). ISSUES OF IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC FRAMEWORK FOR THE ORGANIZATION OF AGRO-CLUSTERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 573-576.